



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIRIM № 132  
"22" 09 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING  
BUYRUG'I**

2022 – yil «22» sentabr

№ 132

Urganch sh.

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2022-yil 21-sentabrdagi 4/21-4/55-sonli  
xati ijrosini ta'minlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi 58-bandi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 21-sentabrdagi 4/21-4/55-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN**

**1. Prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlariga hamda huzuridagi akademik litsey va texnikum direktorlariga :**

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 7- martdagi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi 58-bandi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 21- sentabrdagi 4/21-4/55-sonli xati rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin;

- Universiteti tasarrufidagi akademik litsey va texnikumlarining o'quvchilariga "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin;

- Universiteti tasarrufidagi akademik litsey va texnikumlarining o'quvchilariga "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash bo'yicha stipendiya komissiyasi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

**2. Universiteti tasarrufidagi akademik litsey va texnikumlari direktorlariga:**

Akademik litsey va texnikum muassasada ta'lim oluvchi barcha o'quvchilarga "Rektor stipendiyasi" haqida va unga nomzodlik qilish imkoniyatlarini hamda barcha hujjatlarni taqdim etishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borsin.



**3. Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi direktori (S.Polvanov) va Matbuot kotibi (M.Ahmedovaga)ga:**

Universiteti tasarrufidagi Akademik litsey va texnikumlarining o'quvchilariga "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash bo'yicha e'lon berish va ularning natijalarini universitetning rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

**4. Devonxona mudiri (M.Satimova)ga:**

Mazkur buyruq o'rnatilgan tartibda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari hamda huzurimizdagi Akademik litsey va texnikum ta'lim muassasa direktorlari e'tiboriga yetkazilishi ta'minlansin.

**5. Mazkur buyruqning ijrosini Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Z. Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.**

**Asos:** Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 21-sentabrdagi 4/21-4/55-sonli xati.

**Rektor**



**B. Abdullayev**

Urganch davlat universiteti rektorining  
2022 – yil «22» sentabrdagi 132- sonli buyrug'iga

1 – ilova

“Rektor stipendiyasi”ni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab Urganch davlat universiteti (keying o‘rinlarda Universitet) huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasalari o‘quvchilariga “Rektor stipendiyasi”ni tayinlash va to‘lash tartibini belgilaydi.

2. “Rektor stipendiyasi” Universitet huzuridagi o‘rta maxsus va professional ta‘lim muassasasining kunduzgi ta‘lim shaklida davlat granti hamda to‘lov-kontrakt asosida ta‘lim olayotgan o‘quvchilariga, shu jumladan qizlarga (xorijiy o‘quvchilardan tashqari) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlardan qat‘iy nazar rag‘batlantirish shaklidagi oyma-oy to‘lanadigan pul ta‘minoti hisoblanadi.

3. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun o‘quvchilarni, shu jumladan qizlarni alohida qobiliyati va iqtidoriga ko‘ra aniqlashning mezonlariga to‘g‘ri kelgan hollarda o‘quvchilar mazkur tanlovlarga o‘z tashabbusiga binoan ishtirok etadilar.

4. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun respublika va xalqaro miqyosidagi fan olimpiadalarida faxrli va sovrinli o‘rinlardan birini egallagan nomzodlar imtiyoz asosida tavsiya qilinadi

5. “Rektor stipendiyasi”ni berish uchun o‘quvchilarni, shu jumladan qizlarni alohida qobiliyati va iqtidoriga ko‘ra aniqlashning quyidagi baholash mezonlari belgilanadi:

**Urganch davlat universiteti tasarrufidagi Ixtisoslashtirilgan maktab va Akademik litsey tomonidan tavsiya qilingan nomzodlarni baholash mezonlari:**

t/r	Tanlov asosida saralash mezonlari	Maksimal ball	Izoh
1.	Fanlardan o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi	25	86-100% - 25 71-85% - 20 <i>*Baholarni o‘rtacha arifmetik qiymati 5 ga ko‘paytirilib hisoblanadi.</i>
2.	Milliy yoki unga tenglashtirilgan xorijiy til bilish sertifikatini	25	86-100% - 25 71-85% - 20 56-70% - 15 <i>*Xorijiy til bilish sertifikatini darajasi mavjud holatda chet tili imtihonidan ozod qilinadi.</i>
3.	Viloyat, tuman (shahar), respublika miqyosidagi fan olimpiadalarida faxrli va sovrinli o‘rinlardan birini egallaganligi uchun	25	1-o‘rin - 25 2-o‘rin - 20 3-o‘rin - 15
4.	Alohida iqtidorga ega o‘quvchilarni turli tanlovlar va sport musoboqalarining viloyat (shahar) va respublika bosqichlarida faxrli o‘rinlarni egallaganligi uchun	25	1-o‘rin - 25 2-o‘rin - 20 3-o‘rin - 15

**Urganch davlat universiteti tasarrufidagi professional ta'lim muassasalari tomonidan tavsiya qilingan nomzodlarni baholash mezonlari:**

<b>t/r</b>	<b>Tanlov asosida saralash mezonlari</b>	<b>Maksimal ball</b>	<b>Izoh</b>
1.	Fanlardan o'rtacha o'zlashtirish darajasi	25	86-100% - 25 71-85% - 20 <i>*Baholarni o'rtacha arifmetik qiymati 5 ga ko'paytirilib hisoblanadi.</i>
2.	Milliy yoki unga tenglashtirilgan xorijiy til bilish sertifikatini	25	86-100% - 25 71-85% - 20 56-70% - 15 <i>*Xorijiy til bilish sertifikatini darajasi mavjud holatda chet tili imtihonidan ozod qilinadi.</i>
3.	Alohida iqtidorga ega o'quvchilarni turli tanlovlar va sport musoboqalarining viloyat (shahar) va respublika bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallaganligi uchun	25	1-o'rin - 25 2-o'rin - 20 3-o'rin - 15
4.	Texnikumlar va kollej o'quvchilari o'rtasida kasb-hunar bo'yicha viloyat, tuman (shahar), respublika ko'rik-tanlovlarida faxrli va sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun	25	Respublika bosqichi -25; Viloyat bosqich -20; Shahar (tuman) bosqichi -15;

**2-bob. "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash va to'lash tartibi**

6. Universitet huzuridagi o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari direktorlari tomonidan mazkur Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan mezonlarga muvofiq keluvchi o'quvchilar aniqlanadi hamda tegishli xulosa tayyorlash (berish) uchun har o'quv yilining oxirgi kunidan 15 kun oldin navbatdagi o'quv yilida "Rektor stipendiyasi"ni tayinlash uchun Universitetning stipendiya komissiyasiga taqdim etiladi.

7. Stipendiya komissiyasi tomonidan "Rektor stipendiyasi"ga loyiq ko'rilgan o'quvchilar, shu jumladan qizlar ro'yxati 5 kun muddatda ko'rib chiqiladi va komissiya xulosasi Universitetning ilmiy kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi.

8. Universitetning Kengashi tomonidan "Rektor stipendiyasi"ga nomzod o'quvchilar bo'yicha taalluqli ma'lumotlar ko'rib chiqiladi hamda "Rektor stipendiyasi"ga sazovor bo'lgan o'quvchilar, shu jumladan qizlar bo'yicha Kengash qarori qabul qilinadi va Rektor (filial direktor) buyrug'i rasmiylashtiriladi.

9. "Rektor stipendiyasi" miqdori oliy ta'lim muassasalari talabalariga tayinlanadigan stipendiyaning bazaviy miqdoriga tenglashtiriladi va o'quv yilining birinchi sanasidan boshlab, bir o'quv yili mobaynida to'lanadi.

10. Universitetning Kengashi qarori va rektor (filial direktor) buyrug'i asosida "Rektor stipendiyasi"ga sazovor bo'lgan o'quvchilar, shu jumladan qizlar uchun tegishli mablag'lar Universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan joriy o'quv yilining har bir o'quv yili uchun bir marotaba o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining rivojlantirish jamg'armasi shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazish orqali to'lanadi.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari tomonidan "Rektor stipendiyasi"ni berish uchun mazkur muassasa direktori buyrug'i rasmiylashtiriladi, ajratilgan mablag'lar hisobidan "Rektor stipendiyasi" hisoblanadi va to'lanadi.

11. Har o'quv yili yakuni bo'yicha Universitet huzuridagi o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari direktorlari "Rektor stipendiyasi"ga talabgor bo'lgan, barcha fanlardan yaxshi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega, jamoat ishlarida faol ishtirok etgan va namunali xulq atvorga ega o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni Universitet kengashiga taqdim etib boradi.

12. "Rektor stipendiyasi"ga sazovor bo'lgan o'quvchilar o'quv yili davomida fanlarni o'zlashtirishni pasaytirib yuborsa va intizomiy jazoga tortilgan taqdirda mazkur stipendiyadan mahrum etiladi.

### **3-bob. Yakuniy qoidalar**

13. "Rektor stipendiyasi"ga nomzodlarni aniqlash, ularni tanlab olish va stipendiya to'lovlari to'g'risidagi ma'lumotlar Universitetning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

14. "Rektor stipendiyasi" to'lovlarining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va tarkibida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

15. "Rektor stipendiyasi"ga nomzodlarning tanlov natijalaridan noroziligi bo'yicha ariza va shikoyatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

16. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

17. Mazkur nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.



**Urganch davlat universiteti rektorining  
2022-yil «22» sentabrdagi 132-sonli  
buyrug‘iga**

**2 – ilova**

**Urganch davlat universiteti tasarrufidagi akademik litsey va texnikumlarning  
o‘quvchilariga “Rektor stipendiyasi”ni tayinlash bo‘yicha stipendiyasi  
komissiya**

**TARKIBI**

1. *Lavozimiga ko‘ra* Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor,  
komissiya raisi
2. *Lavozimiga ko‘ra* O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo
3. *Lavozimiga ko‘ra* Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat  
bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
4. *Lavozimiga ko‘ra* Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, a‘zo
5. *Lavozimiga ko‘ra* Bosh hisobchi o‘rinbosari (hisob-kitob), a‘zo
6. *Lavozimiga ko‘ra* Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat”  
tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i, a‘zo
7. *Lavozimiga ko‘ra* Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil  
etish bo‘lim, komissiya kotibi